



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YI INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdulkarimovna	
Sarvinov Mamatojievna Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulayeva Fariza Akmalayevna	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatrayimov Anvar Chorsanbiyevich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEKANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO Tajribalar qiyosiy tahlili	117
G'afforov Kamronbek	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILiy KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich	
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR Tajribalaridan FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli "suv ta'minot servis" AJ misolida).....	160
Doniyorova M.	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVCI)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова	
Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев	
THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich	
Alimova Guzal Abdukhakimovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES	
SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL	
INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUV	
XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING	
INSTITUTIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI	
TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY	
INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ	
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
VA MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	



TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI



Raxmanova Laylo Baxodirovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Kimyo-metallurgiya” fakulteti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: rlaylo120685@mail.com
Tel.: +998 99 412-28-82

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish hamda moliyalashtirishning zamonaviy amaliyotdagi holati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyatida kreditlash mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyati, kredit portfeli sifati, kredit risklarini boshqarish tizimi va raqamli texnologiyalar asosida kredit xizmatlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kredit ajratish jarayonida zamonaviy skoring tizimlari, masofaviy bank xizmatlari va moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kreditlash jarayoni, moliyalashtirish, kredit siyosati, kredit portfeli, kredit risklari, bank tizimi, raqamli bank xizmatlari, skoring tizimi, kredit mexanizmi, fintech texnologiyalari, zamonaviy bank amaliyoti.

Abstract: This article analyzes the improvement of lending processes in commercial banks and the state of financing in modern practice. The study examined the economic significance of lending mechanisms in commercial banks' operations, loan portfolio quality, credit risk management systems, and the development of digital-based lending services. It also examines ongoing reforms in the banking system, the effectiveness of modern scoring systems in loan distribution, remote banking services, and financing mechanisms.

Keywords: commercial banks, lending process, financing, credit policy, loan portfolio, credit risks, banking system, digital banking services, scoring system, lending mechanism, fintech technologies, modern banking practice.

Аннотация: В данной статье анализируется совершенствование процессов кредитования в коммерческих банках и состояние финансирования в современной практике. В ходе исследования изучалось экономическое значение механизмов кредитования в деятельности коммерческих банков, качество кредитного портфеля, система управления кредитным риском и развитие кредитных услуг на основе цифровых технологий. Также анализировались проводимые реформы в банковской системе, эффективность современных скоринговых систем в процессе распределения кредитов, дистанционные банковские услуги и механизмы финансирования.

Ключевые слова: коммерческие банки, процесс кредитования, финансирование, кредитная политика, кредитный портфель, кредитные риски, банковская система, цифровые банковские услуги, скоринговая система, кредитный механизм, финтех-технологии, современная банковская практика.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda bank kreditlari muhim moliyaviy instrument



vazifasini bajarmoqda. Shu jihatdan tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish, moliyalashtirish mexanizmlarini zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini transformatsiya qilish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda aholi bandligini oshirishda kreditlash tizimining roli yanada kuchaydi. 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ilk marotaba 145 milliard dollardan oshgani, iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarni tashkil etgani hamda eksport hajmi 33,4 milliard dollarga yetgani bank-moliya sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi [1]. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kreditlash tizimida ham tub tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, fintech texnologiyalarini joriy qilish, kredit ajratish jarayonlarida sun'iy intellekt va skoring tizimlaridan foydalanish, masofaviy bank xizmatlari ulushini oshirish hamda kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Murojaatnomasida ham IT, fintech va sun'iy intellekt yo'nalishlaridagi startaplarga 270 million dollar investitsiya jalb qilingani, Markaziy bank huzurida Fintech ofisi va Innovatsion xab tashkil etilishi, fintech startaplarni xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun yangi tizim yaratilishi qayd etilgan [1]. Mazkur holat bank xizmatlarining texnologik transformatsiyasi kreditlash amaliyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish hajmi ham izchil oshib bormoqda. Xususan, 2026-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm resurs ajratilishi, mahallalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish uchun 5 trillion so'm kredit yo'naltirilishi, xizmatlar sohasiga 85 trillion so'm kredit ajratilishi belgilangan [1]. Bu esa tijorat banklarining real sektorini moliyalashtirishdagi roli tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq kreditlash amaliyotida qator muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim tijorat banklarida kredit portfeli sifatining yetarli darajada barqaror emasligi, muammoli kreditlar ulushining oshishi, kredit resurslarining yuqori foiz stavkalari, kredit ajratishdagi ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq murakkabliklar hamda risklarni baholash tizimining zamonaviy talablar darajasida shakllanmaganligi bank tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, global iqtisodiy o'zgaruvchanlik, inflyatsion bosim, tashqi moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar va xalqaro raqobat sharoitida tijorat banklarining kredit siyosatini yanada takomillashtirish zarurati kuchaymoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish modeli asosida transformatsiya qilinayotgani kreditlash tizimiga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Prezident Murojaatnomasida iqtisodiyotning texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazilishi, sanoatda "Industriya 4.0" texnologiyalarini joriy qilish, sun'iy intellekt asosidagi loyihalarni rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot ulushini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu jarayonlarda tijorat banklari innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, uzoq muddatli investitsion kreditlar ajratish va zamonaviy moliyaviy xizmatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini tashkil etish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida bank tizimining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli ortib borayotgani sababli kreditlash amaliyotining nazariy, institutsional va huquqiy jihatlarini ko'plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ayniqsa, zamonaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish, kredit risklarini boshqarish, fintech texnologiyalarini bank faoliyatiga joriy qilish hamda bank kreditlari samaradorligini oshirish masalalari bugungi ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishiga aylangan. Xorijiy iqtisodchi olimlardan F. Mishkin bank tizimining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilib, tijorat banklarining kreditlash faoliyati iqtisodiy o'sishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, banklarning kredit siyosatini samarali tashkil etish moliyaviy vositachilik samaradorligini oshiradi hamda iqtisodiyotdagi investitsion faollikni rag'batlantiradi [2]. Shuningdek, P. Rose tijorat banklari faoliyatini boshqarish bo'yicha ilmiy qarashlarida kredit risklarini boshqarish tizimini bank barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholaydi. Uning tadqiqotlarida kredit portfeli sifati, qarzdorlarning to'lov qobiliyatini baholash hamda kredit monitoringi jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan [3].

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklari kreditlash amaliyotini modernizatsiya qilish iqtisodiy transformatsiyaning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ularning ilmiy tahlillariga ko'ra, raqamli bank xizmatlari va fintech texnologiyalarining rivojlanishi kredit ajratish jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi



[4; 5]. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi skoring tizimlari banklarda kredit risklarini kamaytirish va mijozlarning moliyaviy holatini aniq baholash imkoniyatini yaratmoqda. Rossiyalik iqtisodchi olim O. I. Lavrushin tijorat banklari kredit operatsiyalarini bank faoliyatining eng daromadli va bir vaqtning o'zida eng riskli yo'nalishlaridan biri sifatida tavsiflaydi. Olim kreditlash jarayonlarida risklarni diversifikatsiya qilish, garov siyosatini takomillashtirish va kredit monitoringini kuchaytirish bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi [6].

O'zbek iqtisodchi olimlari tomonidan ham tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, Sh. Abdullayeva bank tizimining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini tahlil qilib, tijorat banklari kreditlash faoliyatining samaradorligi mamlakat investitsion faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi [7]. J. Isakov o'z tadqiqotida tijorat banklari kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan [8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarining kreditlash faoliyati turli yo'nalishlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida kreditlash jarayonlarini kompleks takomillashtirish, fintech texnologiyalarining kredit siyosatiga ta'siri hamda zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy samaradorligini baholash masalalari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur maqolada tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish va moliyalashtirishning zamonaviy amaliyotdagi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish va moliyalashtirishning zamonaviy amaliyotdagi holatini ilmiy jihatdan o'rganish uchun kompleks yondashuv asosida iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi bank kreditlash tizimining nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan zamonaviy ilmiy usullar majmuasiga tayandi.

Tadqiqot jarayonida dastlab ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, tijorat banklarida kreditlash jarayonlarining iqtisodiy mohiyati, bank kredit siyosati va moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy jihatlarini o'rganildi. Ushbu usullar orqali kreditlash tizimining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli hamda bank kreditlarining investitsion faollikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bundan tashqari, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil usullari orqali tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar hajmi, kredit portfeli tarkibi, muammoli kreditlar ulushi hamda moliyalashtirish manbalari dinamikasi tahlil qilindi. Tadqiqotda bank kreditlarining iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va tadbirkorlik rivojiga ta'sirini aniqlashda dinamik qatorlar va foizli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti murojaatnomalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, tijorat banklari moliyaviy hisobotlari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro moliya institutlari statistik ma'lumotlari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va iqtisodiy adabiyotlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tijorat banklari milliy iqtisodiyotning eng muhim moliyaviy institutlaridan biri sifatida iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va tadbirkorlik rivojlanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda aholi bandligini oshirishda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning o'zni tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini transformatsiya qilish, bank xizmatlarini raqamlashtirish va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida qayd etilishicha, 2026-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm resurs ajratilishi, xizmat ko'rsatish sohasiga 85 trillion so'm kredit yo'naltirilishi hamda iste'mol kreditlari hajmini 125 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan [1]. Mazkur ko'rsatkichlar tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishdagi rolini sezilarli ravishda kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida ichki talabni rag'batlantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xizmatlar sohasining ulushini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bank kreditlariga bo'lgan talabni ham sezilarli darajada oshirmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari, oilaviy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari asosiy moliyaviy manba vazifasini bajarmoqda. Kredit resurslarining kengayishi natijasida iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, servis obyektlari va infratuzilmalar shakllanmoqda.



1-jadval

O'zbekistonda 2026-yilda tijorat banklari orqali asosiy yo'nalishlarga ajratiladigan kredit resurslari hajmi¹

Moliyalashtirish yo'nalishlari	Ajratiladigan mablag' hajmi	Asosiy maqsadi
Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish	140 trln so'm	Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash
Xizmat ko'rsatish sohasi	85 trln so'm	Servis iqtisodiyotini rivojlantirish
Iste'mol kreditlari	125 trln so'm	Ichki talabni rag'batlantirish
Ipoteka kreditlari	23 trln so'm	Uy-joy bozorini rivojlantirish
Mahallalarda ishlab chiqarish loyihalari	5 trln so'm	Yangi ish o'rinlari yaratish
Mahalla loyihalari uchun resurslar	7,5 trln so'm	Bandlikni oshirish
Ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish	7 trln so'm	Xususiy ta'lim xizmatlarini qo'llab-quvvatlash

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kredit siyosatida asosiy ustuvor yo'nalish sifatida real sektorni moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun ajratilayotgan 140 trillion so'mlik kredit resurslari iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bank kreditlash tizimining strategik ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasiga ajratilayotgan 85 trillion so'mlik kredit resurslari servis iqtisodiyotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Xususan, turizm, transport, IT xizmatlari, logistika, elektron savdo va ta'lim xizmatlari kabi yo'nalishlarda bank kreditlariga talab ortib bormoqda. Bu esa tijorat banklari kredit portfelida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ortishiga sabab bo'lmoqda. Ipoteka kreditlari hajmining 23 trillion so'mga yetkazilishi esa uy-joy bozoridagi iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Uy-joy qurilishi iqtisodiyotning qurilish materiallari, mebelsozlik, maishiy texnika va transport kabi ko'plab tarmoqlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli ipoteka kreditlarining kengayishi iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Biroq kreditlash hajmlarining ortishi bank tizimidagi ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, kredit portfeli sifatining pasayishi, muammoli kreditlar ulushining ortishi, kredit risklarini baholash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi tijorat banklari faoliyatiga bank tizimi samaradorligiga ta'sir etmoqda. Ayniqsa, iste'mol kreditlari va uzoq muddatli ipoteka kreditlarining keskin oshishi kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli so'nggi yillarda tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy fintech texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalar kredit ajratish jarayonlarining tezkorligini oshirish, inson omilini kamaytirish, kredit risklarini aniq baholash hamda bank xizmatlarining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Murojaatnomasida qayd etilganidek, mamlakatda fintech va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun 270 million dollar investitsiya jalb qilingan bo'lib, Markaziy bank huzurida Fintech ofisi va Innovatsion xab tashkil etilishi belgilangan [1]. Bu esa bank tizimini raqamlashtirish orqali kreditlash mexanizmlarini zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va o'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to'g'risida"gi qarori / <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri²

Ko'rsatkichlar	An'anaviy kreditlash tizimi	Raqamli kreditlash tizimi
Kredit ajratish muddati	5–15 kun	5–30 daqiqa
Hujjatlar hajmi	Yuqori	Minimal
Kredit risklarini baholash	Subyektiv	AI va skoring asosida
Operatsion xarajatlar	Yuqori	Past
Mijozlar qamrovi	Cheklangan	Keng
Monitoring tizimi	Qo'lda	Avtomatlashtirilgan
Shaffoflik darajasi	O'rtacha	Yuqori
Muammoli kreditlarni aniqlash	Kechikkan	Real vaqt rejimida
Mijozlarga xizmat ko'rsatish	Bank filialida	Onlayn platformalar orqali
Ma'lumotlarni qayta ishlash	Sekin	Tezkor

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli kreditlash tizimlari tijorat banklari faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, kredit ajratish muddatining bir necha kundan bir necha daqiqagacha qisqarishi mijozlar uchun qulaylik yaratmoqda hamda bank xizmatlari tezkorligini oshirmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va skoring tizimlari asosida qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash kredit risklarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli kreditlash tizimining yana bir muhim afzalligi operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liqdir. An'anaviy kreditlash tizimida katta hajmdagi hujjatlar aylanishi, inson omili va vaqt sarfi mavjud bo'lsa, raqamli bank xizmatlarida ushbu jarayonlar avtomatlashtiriladi. Bu esa tijorat banklari xarajatlarini kamaytirib, ularning moliyaviy samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, fintech texnologiyalarining rivojlanishi moliyaviy inklyuzivlik darajasini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Avvallari bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan hududlarda yashovchi aholi ham mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa iqtisodiyotda moliyaviy xizmatlarning ommaviylashuviga olib kelmoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tijorat banklari kreditlash tizimini modernizatsiya qilish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlarni kamaytirish, risk-menejment tizimini takomillashtirish hamda raqamli kreditlash texnologiyalarini keng joriy etish bank tizimining kelgusidagi ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish, investitsion faollikni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini transformatsiya qilish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida tijorat banklari kreditlash tizimining zamonaviy holati tahlil qilinib, kredit resurslari hajmining ortib borayotgani iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Xususan, kichik va o'rta biznes, xizmat ko'rsatish sohasi, ipoteka tizimi hamda iste'mol bozorini moliyalashtirish uchun ajratilayotgan kreditlar hajmining kengayishi ichki iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit portfelining kengayishi investitsion jarayonlarni jadallashtirib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Tahlillar natijasida kreditlash tizimida bir qator muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, ayrim tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi, kredit risklarini baholash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi, kredit ajratish jarayonlaridagi ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq murakkabliklar hamda uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi bank tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son "o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va o'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to'g'risida"gi qarori / <https://president.uz/oz/lists/view/8834>



Bundan tashqari, global iqtisodiy o'zgaruvchanlik, inflyatsion bosim va tashqi moliyaviy xavflar tijorat banklari kredit siyosatini yanada ehtiyotkorlik bilan tashkil etishni talab qilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblandi va ular quyidagilardir:

- tijorat banklarida kredit risklarini baholash tizimini sun'iy intellekt va zamonaviy scoring texnologiyalari asosida takomillashtirish;
- muammoli kreditlar ulushini kamaytirish maqsadida kredit monitoringi va post-kredit nazorat tizimini kuchaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun uzoq muddatli va imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish;
- bank xizmatlarini raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda kredit ajratish jarayonlarining tezkorligi va qulayligini oshirish;
- tijorat banklarida fintech texnologiyalari va innovatsion moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish uchun investitsion muhitni yaxshilash;
- kredit portfeli diversifikatsiyasini ta'minlash orqali banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kredit mablag'laridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- bank tizimida kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi mexanizmlarini kuchaytirish.

Umuman olganda, tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bank tizimida raqamli texnologiyalar, innovatsion moliyaviy instrumentlar va zamonaviy risk-menejment mexanizmlarini keng joriy etish kelgusidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2018.
3. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management and Financial Services. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 740 p.
4. World Bank. Global Financial Inclusion and Consumer Protection Survey Report 2022. – Washington, DC: World Bank, 2022. – URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/brief/ficpsurvey>
5. Tok Y. W., Heng D. Fintech: Financial Inclusion or Exclusion? IMF Working Paper No. 2022/080. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2022. – URL: <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2022/05/06/Fintech-Financial-Inclusion-or-Exclusion-517619>
6. Лаврушин О. И. Банковское дело: учебник. – Москва: КНОРУС, 2021.
7. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 732 b.
8. Isakov J. Y. Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yo'llari // Green Economy and Development. – 2023. – Vol. 1, No. 10. – B. 400–404. DOI: 10.55439/GED/vol1_iss10/a77
9. To'xtayeva B. R. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish yo'llari // Synapses: Insights Across the Disciplines. – 2025. – Vol. 2, No. 11. – B. 4–12. – URL: <https://zenodo.org/records/17565674>
10. Amed S., Hang C. Y., Banerjee S. PDx: Adaptive Credit Risk Forecasting Model in Digital Lending Using Machine Learning Operations. – arXiv, 2025. – URL: <https://arxiv.org/abs/2512.22305>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>